

ISAJON SULTON ASARLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK USULLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sulton asarlarini o'qitishda pedagogik usullarning samaradorligini oshirish yuzasidan fikr va mulohazalar berib o'tilgan. Shunga ko'ra, asarlarining o'qitish texnologiyasida qo'llaniladigan metodlar va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan Finlandiya va O'zbekiston ta'lim tizimidagi metodlar tavsiya qilib o'tilgan. Adabiyot o'qitish metodikasining badiiy o'qitish jarayoniga oid bog'liqlik va tushunchalari yuzaga keladi. Mutaxassislarining metodik qarashlari va ularning natijasidagi erishayotgan yutuqlar tahlil jarayonga olingan adabiyot tarixi va bugungi kundagi adabiyotga berilayotgan e'tiborning ifodalanish shakllari ham o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Hozirgi adabiy jarayon, ilmiy va pedagogik jarayon, badiiy tasvir tushunchasi

Ta'lim ishini tashkil qilishning dolzarb ahamiyatidan biri bu adabiy asarlarining tahlil qilinishi. Shu jumladan Isojon Sulton asarlarini o'qitishda pedagogik vositalarining samaradorligidir. Bugungi kunda ta'lim ishini tashkil etishda voqealardan qochish va kreativ fikrlash qobiliyatini yuzaga keltirish adabiyot o'qitish metodikasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Qozoqboy Yo'ldashevning fikriga ko'ra talaba yoshlarda adabiy muhitga bo'lgan sharoit va ilmiy yangiliklarga qiziqish yuqori darajani tashkil etadi. Ushbu mavzudagi bir qator o'quv qollanmalari bilan birga «Kitob o'qishni bilasizmi» nomli kitobida kitobxonlik madaniyati haqida so'z yuritiladi, badiiy asarni o'qish va uqish salohiyati haqida qimmatli mulohazalarni bayon etiladi: «Siz darsliklardan hayot va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishasiz, ularni aql kuchi bilan qabul qilasiz, xotiringizda qayd etasiz. Ammo bu bilim vaxulosalar hissiyotingizga zarracha ta'sir ko'rsatmaydi. Badiiy asarni o'qiganda sizdagi bu «loqaydlik» faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg'anadi - nihlanasiz, g'azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni befarq qoldirmaydi»[1]. Shunga ko'ra pedagogik salohiyati va usullarini foydalangan holatda asarlarini tarjima qilish va ularni o'qitish texnologiyalarni yo'lga qo'yish kerak. Bu borada Isojon Sulton asarlarini g'oyaviy badiiy asosi o'zbek milliy qadriyatlarini asosida dunyoga keladi. Uning bir qator asarlari dunyo adabiyoti vakillari tomonidan ham iliq munosabat bildirilgan. Asosan, Isojon Sultonning «Munjoat» qissasida o'ziga xos tavsiya etilgan dastur usulining ifodalanishi milliy qadriyatlarimiz asosida yuzaga keladi. Bu borada taqqoslash va kreativ jihatdan fikr bildirish ramzlari mifologik afsonalarga asoslangan holatda asarlarini tahlil qilish o'z o'rnida katta bir mas'uliyatni yuzaga keltiradi. Muallif tili orqali ro'y berayotgan voqelik hodisalar asarda voqealar rivojiga bevosita ta'sir qiladi. Voqealar rivojining boshqa qahramoni bevosita predmetlar hayvonlar yoki voqelik sifatida olishi mumkin. Ammo muallif nazarda tutayotgan voqelik ma'lum bir simvollar yangi ramzilik asosida ham ko'chishi mumkindir.

«Adabiyot o'qitish metodikasi badiiy adabiyot o'qitilish jarayoni, bog'liq

qonuniyatlarni o'rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg'unlashadi. Ya'ni adabiyotshunoslik alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug'ullansa, pedagogika bola tarbiyasi qonuniyatlari bilan mashg'ulligi ma'lum. Ammo bu ikkala fan ham uzluksiz ta'lim jarayonida adabiyotdan nimani va qanday o'qitilishi kerakligi masalasini hal qilib bera olmaydi. Shu ma'noda adabiyot o'qitish metodikasi alohida fan sifatida filologik ta'lim uchun zarur hisoblanib, lining o'z obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni va metodlari mavjud".[2] Inson hayotining mazmuni qiladigan ishlari xatti-harakatlari, jamiyatdagi o'z o'rinni egallashga qaratilgan masalalar asarning bosh g'oyasi bo'lib hisoblanadi. O'quvchi yoshlarga, ularning yosh darajasidan kelib chiqqan holatda ularga asarni tahlil qilish jarayonida bir necha bor pedagogik usullarini foydalanish mumkin bunday usullardan facebooklardan foydalanish maktab darajasida katta bir yutuqlarni keltiradi oliy ta'lim jarayonida esa Finlandiya va O'zbekiston bilan hamkorlik amalga oshirilayotgan ta'lim usullaridan foydalanishi kerak.

O'zbek adabiyotining yuksak darg'alaridan biri Said Ahmad o'zining "Ufq" romanida ham ota obrazini baland bir cho'qqiga olib chiqqan. Asarda bir-biriga komplement ravishda yuzaga kelgan ota obrazlariga diqqat qaratsak. Masalan: Azizxon va Ummatalining, Ikromjon bilan Tursunboyning xarakterlari tadqiq qilib qarasaq, unda farzand tarbiyasiga qanday e'tibor qaratish kerakligi haqida ham ma'no-mazmun anglashiladi. Ummatali Azizxonning otasidir. Azizxon aytganidan qaytmas, cho'rtkesar bola hattoki, o'z sevgisi yo'lida uyidan ham qochib ketadi. Lekin uning qilgan bu ishi hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. O'sha paytdagi Ummatalining psixik holatini bir tasavvur qilib ko'ring. Qaysidir inson buni shunchaki gapirgan paytida anglamasligimiz mumkin. "Prof. Q. Yo'ldoshevni adabiyot o'qitish metodikasi ilmida buri I ish yasadi deyish mumkin. Olim tubdan o'zgargan jamiyatdagi adabiy ta'limni mohiyatan o'zgartirishning ijtimoiy, ilmiy va pedagogik asoslarini ko'rsatib berdi. U adabiy faktlarni bildirishning o'zi adabiyot saboqlari uchun maqsad emasligini, badiiy asar bilan tanishish o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishga qaratilishi kerakligini ta'kidlab yozadi: «Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo,,Imagan o,,quvchidan ko,,ra, badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlamini o'z tablatiga singdirgan, sirdan qaraganda, nafaolday tuyuladigan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir".[3]

Xulosa o'rni shuni aytish mumkinki, Isajon Sulton asarlarini o'qitish metodikasini va tahlil etishda ijodkor faoliyatining bosh g'oyasi, adabiy timsollar va ramzlarini yaxshi anglagan holda ifodalangan ko'rsatkichlardan foydalanish kerak. Qozoqboy Yo'lfoshevning olib borgan tadqiqotlariga tayangan holatda adabiyot tarixiga aloqador bo'lgan afsona va rivoyatlarning bosh mavzu darajasiga ko'tarilishi ta'lim jarayonining bosh mezonini bo'lishi lozim. Bunga sabab ijodkor ijodi manashunday rivojlanishni taqazzo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safo Matjon. Kitob o,,qishni bilasizmi? -T .: O'qituvchi»5 1993.11-bet.
2. S. Dolimov, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: «O'qituvchi», 1967; A. Zunnunov, N. Hotamov, J. Esonov, A. Ibrohimov. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: «O'qituvchi», 1992; B.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: «Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi», 2010.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - Toshkent.:
1996